



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-190-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**Angor tumanidagi tijorat banklari tomonidan dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida**

Angor tumanida dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tumandagi tijorat banklari rahbarlarining axborotlari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko'rib chiqilganligini hamda kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

**1. Dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tumandagi tijorat banklari rahbarlarining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

### **2. Tumandagi mavjud bank filiali va bank xizmatlari markazlariga:**

- kreditlarni ustuvor ravishda dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralarini ko'rish;

- sektor rahbarlari bilan birgalikda aholini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis, tikuvchilik, parrandachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik yo'nalishlarida bandligini ta'minlash yangi ish o'rni yaratish choralarini ko'rish;

- oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarga imtiyozli bank kreditlarini ajratishda muntazam yordam berish;

- ustuvor ravishda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga daromadli mehnat bilan band qilish yoki ularni doimiy mehnat bilan bandligini ta’minlash (ish o‘rinlari yaratish)ga qaratilgan loyihalarga yo‘naltirilishida mahallalardagi hokim yordamchilari mas’uliyatini oshirish chorasini ko‘rish;

- dasturlar doirasida mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihalarni har oy yakuni bo‘yicha maqsadlilagini monitoring qilib borish;

- bank xizmatlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xizmat turlarini yanada kengaytirish va sifatini yaxshilash choralarini ko‘rish;

- muammoli kreditlarni yil yakuniga qadar Sud organlari bilan hamkorlikda yopish choralarini ko‘rish vazifalari yuklansin.

### **3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov):**

- oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash dasturlari doirasida ajratilayotgan kredit mablag‘larni o‘z vaqtida o‘zlashtirilishiga to‘sinqilik qilayotgan omillarni bartaraf etish;

- ajratilayotgan kredit mablag‘larni o‘z vaqtida o‘zlashtirmagan mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi hokim yordamchilari bilan bирgalikda, o‘zlashtirmaganlik sabablarini to‘liq o‘rgangan holda navbatdagi sessiya yig‘ilishiga ahborot kiritish vazifalari yuklansin.

4. Tumandagi sektor rahbarlari hamda mahallalardagi hokim yordamchilari, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirilishida amaliy yordam qilish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy hamda tanqidiy ruhda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**